

Date: 21st October-2024

IBROYIM YUSUPOV-QORAQOLPOQ ADABIYOTINING SO‘NMAS
YULDUZI

Qoylibaeva Janera

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorauzak tumani
XTBga qarashli 12-sonli maktabning II toifali
qoraqalpoq tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli qoraqalpoq shoiri Ibroyim Yusupovning hayoti va ijodi aks ettirilgan

Kalit so‘zlar: do‘stlik, she‘riy to‘plamlari

XX asr qoraqalpoq adabiyoti nomayondasi, xalqimizning taniqli shoiri Ibroyim Yusupov 1929-yili 5-mayda Chimboy tumanining Ozot ovulida dunyoga kelgan. Ibroyim Yusupov lirikasi O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonim so‘zi bilan ta‘kidlaganda: “Qoraqalpoq ovozi” bo‘lib xalqimizning yuragidan chuqur iz oldi

Ibroyim Yusupov 1949-yili Qoraqalpoq davlat pedagogikaliq institutini tugatib, shu institutda o‘qituvchi bo‘lib ishladi. 1961-1962-yillari “Amudaryo” jurnalining bosh muharriri, 1962-1965-yillari N.Dawqaraev nomidagi tarix, til va adabiyoti institutida ilmiy xodim, 1965-1980-yillarda Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasining raisi, 1980-1985-yillarda “Erkin Qoraqalpog‘iston” gazetasida bosh muharrir lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan.

Shoir o‘zining ilk asari “Vatanim” she‘ri e‘lon qilingan paytdan boshlab shu bugungacha “Baxt lirikasi”, “Kunchiqar yulovchisiga”, “Etti navo”, “Dala orzulari”, “Tuzli shamollar”, “Harkimning o‘z zamoni bor” kabi she‘riy to‘plamlarini nashr ettirdi. Turli yillarda chop etilgan to‘plamlarida shoirning “Aktrisaning iqboli”, “Dala armonlari”, “Gilamchi ayol”, “To‘maris” va boshqa poemalari e‘lon etilgan.

Shoir O‘zbek adabiyoti bilan abadiy do‘stlik mavzusi Ibroyim Yusupov ijodidagi eng yorqin sahifalarni tashkil qiladi. U ijodkor, tarjimon, matbuot xodimi, jamoat arbobi sifatida o‘zbek adabiyoti va madaniyatining yirik vakillari bilan do‘stlashdi, ijodiy muloqatlarda, safarlarda birga bo‘ldi. G‘afur G‘ulom, Oybek, Zulfiya, Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari ijodkorlar bilan ijodiy munosabatlari har doim yangi-yangi mazmun va ibratli voqealar bilan boyib bordi. Uning o‘zbek tilida “Buloqlar qaynaydi”, “Cho‘l to‘rg‘ayi”, “Mening yigit vaqtim, sening qiz vaqting” kabi she‘riy to‘plamlari chop etilgan.

Unga Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sa‘nat arbobi faxriy unvoni berildi. Berdaq nomidagi davlat mukofatiga loyiq ko‘rildi. U uzoq yillar mobaynida O‘zbekiston hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Majlislariga deputatlikka saylandi. Shoir O‘zbekiston Respublikasining “El-yurt hurmati”, “Do‘stlik” ordenlari, bir qator hukumat faxriy yorliqlari va medallari bilan mukofatlandi. Unga 2004-yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan “O‘zbekiston Qahramoni” oliy unvoni berildi.



Date: 21st October-2024

Ibroyim Yusupov she'ryatining yurakka yaqinligi, ko'ngilga joligining siri shundaki, shoir hamma vaqt xalqning tilagidagi, yuragidagi eng ezgu tuyg'ularni, orzu-niyatlarini o'tkir pafos va teran lirizm bilan o'z she'riy qatorlarida tasvirlagan. Shoir o'z she'rlarida adabiy qahramonlarni ko'pgina holatlarda turmushdan, o'z davridan oladi va ularning takrorlanmas obrazini yaratishga intiladi

Mustaqilliqning eng katta yutug'i-O'zbekiston bilan dunyo xalqlari do'stligining mustahkamlanishi bo'ldi. Shu sababli ham atoqli shoir Ibroyim Yusupov xalqimizning tug'ishgan xalqlar bilan totuvlik, inoqlik va do'stlik masalasini kuylashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Masalan, "Tug'ishganlik" she'rida quydagi qatorlarga e'tibor bersak:

*Suvimni daryodosh etgan,
Elimni do'st- qardosh etgan,
Turkmanga nag'malash etgan,
"G'ardashi" ko'b tug'ishganlik.*

*

*Qozoqlarga toy so'ydirgan,
Qirg'izlarga qo'y so'ydirgan,
O'tov tikib, bosh qo'ydirgan,
Himmatli so'z tug'ishganlik*

Shoir bu she'rida turkiy tilli xalqlar bilan tubimiz bir tug'ishgan ekanimizni, ularning quvonchi biz uchun katta bayram, ularning qayg'usi- biz uchun og'ir dard ekanligini kuylaydi.

Shoir ko'plab qardosh xalqlar va jahon adabiyoti mumtoz shoirlar asarlarini qoraqolpoq tiliga tarjima qilib, sayrata olgan tarjimondir. U A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, Bayron, G.Geyne, Shiller she'rlarini, Shekspir sonetlarini, Alisher Navoiy va Hofiz g'azallarini, Umar Hayyom ruboiylarini qaroqalpoq tiliga yuksak mahorat bilan tarjima qilib, milliy adabiyotimizni badiiy-g'oyaviy, shakliy jihatdan turli asarlar ila boyitdi.

Ibroyim Yusupov nasr va dramaturgiya sohasida ham qalam tebratdi. 1963-yili uning "Qari tutning kuzi" nomli hikoyalar, ocherk va publitsistik maqolalar to'plami bosmadan chiqdi. Shoir "Qirq qiz" piasasini, 1966-yilda "Umirbek laqqi" komediyasini, 1986-yili "Iskandar podshoning tushi" dramasini, 1973-yili "Ajiniyoz" operasi librettosini yaratdi.

Buyuk shoir, o'lmas asarlari bilan qaroqalpoq va o'zbek adabiyotin boyitgan Ibroyim Yusupov 2008-yilda 79 yoshida vafot etdi. U qaroqalpoq adabiyotining so'nmas poeziya yulduziga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Nizanov, Sh.Usnatdinov. So'z zargari edi. Qaraqalpaqstan.2009.
- 2.K.Allambergenov, M.Bekbergenova . XX asir qaraqalpaq adebiyati. Nokis.Bilim.

